

bo‘lib, u turli sabablar orqali vujudga keladi. Bu kasallik asosan zararli odatlar (alkogol istemol qilish), parazitlar infeksiyasi, virusli B, C va D gepatitlari va notog‘i ovqatlanishdan kelib chiqadi. Sirroz rivojlanishining kuzatiladigan sabablariga yana o‘t yo‘llari kasalliklari (jigar ichi va tashqarisida), yurak yetishmovchiligi, turli kimyoviy moddalar (gepatotoksinlar) va dorilar bilan zaharlanish. Sirroz shuningdek modda almashinuvining genetik buzilishlari (gemoxromatoz, gepatoventikulyar degeneratsiya, α_1 -antitripsin yetishmovchiligi) va darvoza venasi tizimidagi oklyuzion jarayonlar (*fleboportal sirroz*) mavjudligida ham rivojlanishi mumkin. Hozirgi kunda jigar kasalligi yosharib borayotganligi sababli bu kasallikni oldini olish uchun yoshlar o‘rtasida (maktab, litsey, oliy o‘quv yurtlarida) tushuntirish ishlarini olib borish uchun tadbirlar tashkil qilish kerak. Jigar sirrozini davolash dorilar qabul qilish va qat‘iy parhezga amal qilish hisoblanadi, biroq, rivojlanib bo‘lganda ortga qaytmaydigan holat hisoblanadi. Bunday holatda jigarni davolab bo‘lmaydi, bemor hayotini saqlab qolishning yagona yo‘li — jigar ko‘chirib o‘tkazishdir. Kuchli astsitda qorindan suyuqlik chiqarib olish amalga oshirilishi mumkin.

Mamlakatimizning turli mintaqalarida (shahar va qishloqlarda) aholining gepatitga chalinishini oldini olish uchun ularga ushbu kasallikka olib keluvchi zararli odatlar haqida ma‘lumot berish va shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish kerakligini tushuntirish, gepatitga chalingan aholing holatini o‘rganib ularni taqqoslagan holda yechim topishdir.

Jigar sirrozi profilaktik chora-tadbirlari sarasiga gepatit bilan kasallanishni oldini olishga qaratilgan har qanday yondashuvlarni kiritish mumkin. Bundan tashqari, quyidagilarga amal qilish tavsiya etiladi: dori-darmonlarni o‘zboshimchalik bilan qabul qilishni cheklash, zararli sanoat korxonalarida ishlashdan qochish; shifokor tavsiyasiga ko‘ra vitamin va mineral komplekslar qabul qilish; yog‘li, qovurilgan va achchiq ta‘mli, konservalangan va yarim tayyor mahsulotlarini iste‘mol qilmaslik; yomon odatlardan, ayniqsa, alkogolli ichimliklarni iste‘mol qilishdan bosh tortish; har yili ovqat hazm qilish tizimining endoskopik tekshiruvdan o‘tish; shaxsiy gigiyenaga rioya qilish va shaxsiy gigiyena vositalaridan foydalanish; virusli gepatit “B” ga qarshi vaktsina olish.

Adabiyotlar.

1. Бабаджанова Ш.А. Курбонова З.Ч. Изучение агрегационной функции тромбоцитов у больных с циррозами печени вирусной этиологии // Сборник материалов III международного молодежного научно-практического форума «Медицина будущего от разработки до внедрения». – Оренбург, 2019. - С 482.

2. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Нарушение системы гемостаза при хронических диффузных заболеваниях печени: монография. Тошкент, "Хилол нашр" босмахонаси, 2021. С. 106-108.

3. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Функциональная характеристика тромбоцитов у больных циррозами печени вирусной этиологии // Российская наука в современном мире. – Москва, 2019. – С. 47-48.

4. Курбонова З.Ч. Нарушение сосудисто–тромбоцитарного звена гемостаза у больных с хроническими гепатитами и циррозом печени вирусной этиологии // Журнал проблемы биологии и медицины. – 2018. - № 3 (102). – С. 40-43.

